



## TYUTOR – TALABA MUVAFFAQIYATINING YO‘LBOSHCHISI

**Umariy Muhriddin Xusniddin o‘g‘li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Oliy va amaliy matematika kafedrasi o‘qituvchisi*

*E-mail: mumariy@bk.ru*

*ORCID: 0009-0007-7276-1254*

**Damira Axmadaliyeva Muhammadali qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Tyutorlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi tyutori*

*E-mail: ahmadaliyevadamiraxon@gmail.com*

*ORCID: 0009-0000-4367-6228*

*Tutor of the Department for Coordination of Tutors’ Activities*

## TUTOR - THE GUIDE TO STUDENT SUCCESS

**Umariy Mukhriddin Khusniddin o‘g‘li**

*Tashkent State University of Economics*

*Lecturer at the Department of Higher and Applied Mathematics*

*E-mail: mumariy@bk.ru*

*ORCID: 0009-0007-7276-1254*

**Damira Akxmadaliyeva Mukhammadali qizi**

*Tashkent State University of Economics*

*Tutor of the Department for Coordination of Tutors’ Activities*

*E-mail: ahmadaliyevadamiraxon@gmail.com*

*ORCID: 0009-0000-4367-6228*

**Annotatsiya:** Mazkur mavzuda tyutorlik faoliyatining talaba muvaffaqiyatiga ta’siri, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati yoritiladi. Tyutor talabaning akademik, shaxsiy va kasbiy rivojlanishida yo‘naltiruvchi, motivatsiya beruvchi va maslahat beruvchi sifatida namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Shuningdek, individual yondashuv, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda tyutorning pedagogik va psixologik kompetensiyalari ochib beriladi. Tadqiqotda tyutor-talaba hamkorligi ta’lim sifati va talabaning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muhim omil ekani asoslab beriladi.

**Abstract:** This topic explores the role of the tutor as a guide in ensuring students’ academic success. It examines the importance of tutoring in the educational process and its impact on students’ academic, personal, and professional development. The tutor is presented as a mentor who provides guidance, motivation, and support, helping students overcome learning difficulties and develop independent learning skills. The study also highlights the significance of an individual approach and the tutor’s pedagogical and psychological competencies in improving the quality of education. The collaboration between tutor and student is emphasized as

*a key factor in achieving sustainable learning outcomes.*

**Kalit soʻzlar:** *Konstitutsiya, qaror, buyruq, maqsad va vazifalar, huquq va majburiyatlar, intizomiy chora, KPY, "Eng yaxshi tyutor", guruh yuragi, psixolog, huquqshunos, rivojlanish, talaba bilan individual ishlash, muvaffaqiyat, adolat, ichki tartib qoida lokal hujjat, toʻgarak, sport, ilm-fan yutuqlari, hamkorlik, olimpiadalar.*

**Keywords:** *Constitution, resolution, order, goals and objectives, rights and obligations, disciplinary measures, KPY, "Best Tutor", heart of the group, psychologist, legal advisor, development, individual work with students, success, justice, internal regulations (local normative documents), clubs, sports, scientific achievements, academic competitions (olympiads).*

**Kirish.** Bugungi kunda oliy taʼlim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar talabalarning har tomonlama rivojlanishini taʼminlash, ularning bilim va koʻnikmalarini zamon talablariga mos shakllantirishni taqozo etmoqda. Mazkur jarayonda tyutorlik instituti taʼlim sifatini oshirish, talabaning shaxsiy va akademik muvaffaqiyatiga erishishda muhim mexanizm sifatida maydonga chiqmoqda. Tyutor nafaqat taʼlim jarayonining tashkilotchisi, balki talabaning huquq va majburiyatlarini tushuntiruvchi, uning maqsad va vazifalarini aniqlashda yoʻnaltiruvchi, shuningdek, psixologik va ijtimoiy qoʻllab-quvvatlovchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi.

Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, taʼlim sohasiga oid qaror va buyruqlarda belgilangan talablar asosida tyutor faoliyati talabaning huquqiy madaniyatini oshirish, ichki tartib-qoidalarga rioya etishini taʼminlash hamda

intizomiy choralarni adolat tamoyili asosida qoʻllashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tyutor talaba bilan individual ishlash orqali uning qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini aniqlab, rivojlanishiga yoʻnaltirilgan samarali pedagogik yondashuvlarni amalga oshiradi.

Mazkur ilmiy maqolada tyutorning taʼlim jarayonidagi oʻrni, uning "guruh yuragi" sifatidagi masʼuliyati, psixolog va huquqshunos bilan hamkorlikdagi faoliyati, shuningdek, talabalarning ilm-fan yutuqlari, olimpiadalar, toʻgarak va sport mashgʻulotlaridagi muvaffaqiyatlariga erishishdagi roli tahlil qilinadi. Tyutorlik faoliyatini samarali tashkil etish orqali talabalarning akademik natijalari va shaxsiy kamolotini taʼminlash yoʻllari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

**Material va metod:** Bugungi globallashuv jarayonlari hamda umumjahon xavfsizligiga jiddiy tahdid solayotgan dolzarb muammolardan mamlakat kelajagi, ertasi boʻlgan talaba yoshlarni ogohlantirish, himoya qilish, yomon illatlardan yiroq tushish va nazoratni takomillashtirish maqsadida Oliy taʼlim muassasalarida yangi lavozim "Tyutorlik" lavozimiga ehtiyojni keltirib chiqardi. Ushbu jarayon Prezidentimizning 2019-yil 8-oktyabrdagi "Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida"gi Farmoni hamda shu asosida qabul qilingan Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirining 2021-yil 30-sentyabrdagi 412-buyrugʻi va Nizomi yangicha tizimga asos boʻldi. Ushbu Nizom

Davlat oliy taʼlim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisida boʻlib, 4 ilovadan iborat.

1-ilova: Davlat oliy taʼlim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi toʻgʻrisida;

2- ilova: Oliy ta'lim muassasalarida tyutor lavozimining "Tarmoq ta'rif - malaka ma'lumotnomasi" to'g'risida;

3-ilova: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarining tuzilmasi to'g'risida;

4-ilova: O'zbekiston Respubl y va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 17-okta buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazining Nizomiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida;

Birinci ilova 8 ta bobdan tashkil topgan bo'lib, yangi kasb bo'lib shakllanayotgan "tyutorlik" kasbini maqsad, vazifa, huquq va majburiyatlarini to'liq ta'riflagan.

Dastavval tyutorlik atamasining ta'rifini keltiradigan bo'lsak Tyutor atamasining kelib chiqishi tarixi eski grek xalqiga tegishli bo'lib, qadimgi grek xalqining zodagon qatlami farzandlari dunyoga kelishi bilan ularga qarash uchun o'z qullarini tayinlaganlar va ular *tyutorlar* deb nomlangan. Zamonaviy talqinda esa ushbu so'z ingliz tilidan tarjima qilinib, "uy o'qituvchisi, o'qituvchi, murabbiy, vasiy" degan ma'nolarni anglatadi. "Tyutorlik" so'zi insonning shaxsiy ta'limini qo'llab-quvvatlashni anglatadi. Bu so'z o'zbek tilida yangi termin sifatida kirib keldi va oliy ta'limda ma'lum bir lavozimni ifodalamoqda.

Hukumatning tegishli qarori bilan 2021 yil 1 sentyabrdan talabalar bilan ishlash bo'yicha "guruh murabbiyi" instituti bekor qilindi va 1-3-kurs talabalari uchun muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam ko'rsatuvchi "Tyutor"larni biriktirish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Hujjatga muvofiq, har 120-150 nafar talabaga 1 ta shtat birligi hisobida "Tyutor" lavozimi kiritildi.

Dastavval, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Yazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 31-dekabrda 824-son hamda "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish choratadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-sentabrda 563-son qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish tartibi va yo'nalishlarini belgilash maqsadida Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar vazirligining 412-sonli buyrug'i tasdiqlandi. Ushbu buyruqda tyutorlarga qo'yiladigan talablar va ularni lavozimiga tayinlash, tyutorlik faoliyatining maqsad va vazifalari, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiya sohasida, o'quv va o'quv-uslubiy sohada vazifalari, huquq majburiyatlari va tyutor ishini tashkil etish jarayonlari belgilangan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 656-sonli "Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 10-dekabrda 501-sonli "Oliy ta'lim tashkilotlarida joriy etilgan tyutorlik faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora -tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i tasdiqlandi. Yuqoridagi yangi tahrirdagi 656-qaror 2 ilovadan iborat.

Quyidagilar: universitetda talaba-yoshlar tarbiyasi bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish, ularda vatanparvarlik ruhini oshirish va tyutorlik faoliyatini

takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi 1-ilova;

Universitetda tyutorlar faoliyati samaradorligini baholash (KPI) tizimini joriy etish yuzasidan nizom 2-ilova;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 656-sonli "Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash haqida" gi qarorida tyutorlik faoliyatining yangi tahrirdagi quyidagi maqsad, vazifa, huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan.

Asosiy maqsad: Talaba-yoshlarni vatanparvarlik, milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy-kasbiy rivojlanishiga yaqindan yordam berish, talabalar bilan individual ishlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish ushbu buyruqda asosiy maqsad qilib olingan bo'lib, ushbu maqsadlarni amalga oshirishdagi harakat va yo'nalishlar belgilab berilgan.

Asosiy 6 ta vazifalari:

1. Talabalarning oliy ta'lim tashkiloti va ta'lim tarbiya jarayonlariga moslashuviga, axborot- resurslari va boshqa manbalardan samarali foydalanishga ko'maklashish hamda shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishga yakka va jamoaviy maslahatlar berish, ichki tartib-qoidalar, odob-axloq kodeksi hamda boshqa lokal hujjatlar bilan tanishtirish,
2. Milliy qadriyatlar hamda qonunga xurmat ruhida tarbiyalash,
3. Sog'lom hayot tarziga intilishni shakllantirish,
4. Nogironligi bo'lgan, yetim ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan vajiymoiy himoyaga muxtoj hamda ijtimoiy –madaniy, ma'naviy-ma'rifiy hayotda faol ishtirok etayotgan talabalarni rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish.

5. Talabalarning yashash manzillaribo'yicha muntazam monitoring yuritish,

6. Talabalarning ota-onasi bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ularni farzandining o'quv-tarbiyaviyva ijtimoiy-maishiysohalardagi faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor qilib boorish. Huquqlari: davomat va o'zlashtirishni monitoring qilish, talabalarni ttjarga joylashtirishva undan chiqarish, talabalarga tavsifnoma, akademik ta'til berishda ishtirok etish,asosiy ishdan bo'sh vaqtida o'rindoshlik asosida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish.

Majburiyatlari: talabalarni odob – axloq kodeksi hamda ichki tartib qoidalarga rioya etilishini kundalik nazorat qilish, talabalar shani, qadr-qimmatini, obro'sini hurmat qilish, shaxsiy ma'lumotlarini ularning roziligisiz oshkor qilmaslik, talabalar bilan bog'liq favqulotdavaziyatlar yuzasidan zudlik bilan fakultet dekani va boshqa mas'ullarga axborot berish.

Talabalar haq - huquq va majburiyatlariga oid qarorlardan habardor bo'lish va talabalarni habardor qilish.

Talabalar bilan ishlashda eng ko'p kerak bo'ladigan qaror, buyruq va nizomlar quyidagilar:

- 1.59-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 31.01.2020.sanada qabul qilingan. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga to'lanadigan stipendiyalar miqdorlarini belgilash hamda stipendiyalar tayinlash va to'lash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. 605-sonli 24.09.2021. sanada qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida

3. 376-son 14.08.2023. sanada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Oliy ta'lim muassasalari talabalarini turar joy bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
4. 563-sonli 09.09.2021. sanada qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
5. 824-sonli 31.12.2020. sanada qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
6. 344-sonli 03.06.2021. sanada qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari talabalariga akademik ta'til berish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida
7. O'RQ-406-sonli 14.09.2016. sanada qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida
8. 226-sonli 13.10.2008. sanada qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori O'zbekiston iqtidorli yoshlarini taqdirlash va moddiy rag'batlantirish to'g'risida
9. PQ-5040-sonli 26.03.2021. sanada qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida
10. 393-sonli 20.06.2017. sanada qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash

va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida 11. PF-5847-sonli, 08.10.2019. sanada qabul qilingan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida;

Ushbu farmon buyruqlardan (universitet miqyosida rektor buyruqlari ham shu qatorda) yaqindan bohabar bo'lish, ushbu qonun qoidalar asosida ish ko'rish, tyutorning faoliyat davridagi zaruriyatdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Ta'lim to'g'risidagi qonunni bilish, anglash va targ'ib qilish esa har bir fuqoroning majburiyati deb o'ylayman.

Talaba yoshlarni rivojlanishi, ham manan, ham aqlan o'sishi, bilim, ma'naviy, sport, IT sohalarda turli yutuq va muvafaqqiyatlarga erishish yo'li qisqa va ravon bo'lishida, uning tyutori yangitdan barpo bo'layotgan qonun, farmon, buyruqlarni tub mohiyatini anglab yetganligi, eng so'ngi yangiliklardan bohabarligi muhim o'rin tutadi. Iste'dodi bor talabalarni qiziqtirish, o'z sohasi bo'yicha rivojlanishiga, yutuqlarga erishishiga undash, soha bo'yicha professionallar bilan uchrashuvlar tashkil etish va uni o'zini ochishiga yordam berish tyutorning asosiy vazifalaridandir.

Yuqoridagi sport, madaniyat, hunarmandchilik sohalariga qiziqishi bor talabalarni rivojlantirish ularni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan bir qatorda hayotda o'z yo'lini topishi, o'zligini anglashi va har tomonlama rivojlanishida ham muhim ro'l o'ynaydi.

Bir so'z bilan aytganda tyutor talaba uchun ustoz, psixolog, huquqiy maslahatchi, ilmiy maslahatchi vazifalarini bajaradi. Tyutorning yana bir vazifasi ota-onasidan yiroqda ilm olayotgan talabalar uchun ko'z-

quloq va to'g'ri yo'l ko'rsata oluvchi ham bo'lish lozim. Ushbu vazifalarni sitqi dildan bajarish har bir tyutorning kasbiy burchidir. Shunday ekan barcha tyutorlar bir yoqadan bosh chiqarib, kelajak avlod uchun harakat qilishimiz va yuksak marralarni talabalar bilan birga zabt etishimiz darkor. Zero talaba erishgan har bir yutuqda tyutorning ham hizmati bo'lishi kerak. Bir so'z bilan aytganda tyutor guruh yuragi bo'lishi kerak, yanikim guruhning har bir a'zosida qanday o'zgarish bo'layapdi, qanday soha yo'nalishlarga qiziqyapdi, psixologik ahvoli qanday, oilaviy ahvoli qanday, jismoniy ahvoli qanday, qiziqishlari nimalardan iborat barcha-barchasini talaba tyutorga aytish kerak buning uchun esa tyutordan talabalar bilan ko'proq ishlash muloqot qilish, individual suhbatlar tashkillashtirishi kerak. O'ylaymanki," Tyutorlik" faoliyatini tashkillashtirishdan asosiy maqsad talaba yoshlarni vatanparvarlik ruhida, milliy qadryatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan bir qatorda o'sib borayotgan kelajak avlodni zamonaning asosiy xavf-xatarlari giyohvandlik, psihatrop moddalar iste'moli, terrorizm, odam savdosi, korrupsiya va turli huquqbuzarliklar tarqalishining oldini olish hamdir. Ushbu o'rinda tyutor universitet va mahalla inspektorlari bilan olib boradigan faoliyat ushbu ko'rsatkichlarni pasayishiga hizmat qilishi tyutorlik faoliyatining kata yutug'i hisoblanadi.

2024–2025-yillarda talabalar jinoyatchiligining barqaror pasayishiga erishilgan. 2025-yilning dastlabki 11 oyida talabalar 585 ta jinoyat sodir etgan — **o'tgan yilning shu davriga nisbatan 142 ta holatga yoki 19% ga kam.** Agar 2024-yilda har 1400 talabaga bitta jinoyat to'g'ri kelgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 2000 tani tashkil etdi. (ma'lumot Oliy ta'lim, fan va innovatsiya vazirining birinchi

o'rinbosari Sardor Rajabovning maruzasidan olindi.) Talabalar jinoyatlarining sabablari va omillari tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning 27 foizi oson pul topish yoki moliyaviy qiyinchiliklarga, 22 foizi shaxslararo nizolarga, 11 foizi huquqiy savodsizlikka, 27 foizi yo'l harakati qoidalarini mensimaslikka va 13 foizi boshqa omillarga bog'liq. Yuqoridagi jinoyatlar oldini olish maqsadida har bir jinoyat turi va uning salbiy oqibatlari to'g'risida talabalarga chuqur ma'lumot berish va davomiy ogohlantirib borish o'ylaymanki, ushbu foizlarni yana tushuradi.

Bundan tashqari, sodir etilgan barcha jinoyatlarning 50 foizi sirtqi ta'lim olayotgan talabalar tomonidan sodir etiladi. Ushbu yo'nalishda tyutorlar faoliyat olib borishmaydi. Talabalardagi ruhiy o'zgarish, oilaviy sharoit do'stlar orasidagi turli kelishmovchiliklar ham jinoyat sodir etishga sabab bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda talabalarga tushuntirish ishlari olib borish huquqiy yordam ko'rsatish, yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqilgan yangi qonun-qoida va imkoniyatlardan bohabar etish maqsadga muvofiq. Talabaga bu turdagi yordamlarni ko'rsatish uchun esa uning tyutori zamon bilan hamnafas bo'lishi, barcha turdagi yangilik va qarorlardan habardor bo'lishi va o'z talabalariga yetkazishi kerak. Bundan tashqari tyutor chin yetim, boquvchisini yo'qotgan hamda imkoniyati cheklangan (nogironligi bor) talabalar bilan ham ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. Ular uchun yaratilgan imkoniyatlardan foydalanishni ularga tushuntirish, ularning huquqlarini belgilangan tartibda himoya qila olish va albatta ularga psixologik yordam ko'rsata olish.

O'ylaymanki, tyutor kasbini tanlagan shaxslar san'at, sport, adabiyot, IT sohalariga qiziqishi hamda ma'lum darajada

ushbu yo'nalishlardan bohabar bo'lishi kerak. Bu tyutorning ish samaradorligini oshishiga hamda talabalarda ushbu sohalarga hurmat, qiziqish uyg'onishiga sababa bo'ladi. ammo ushbu qo'shimcha jarayonlar talabaning univerisitetda, o'z sohasi bo'yicha kerakli bilim malakalarni olish jarayoniga dahl qilmasligi faqat talabaning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, talabaning kelajakda yetuk kadr bo'lib yetishishi, kelajakda ish faoliyatini olib boradigan maskanida ham o'zini ko'rsata olishi eng avvalo jamiyat uchun nafaqat kerakli balki, uni rivojlantiradigan yuksaltiradigan tarbiyali ma'naviyatli serqirra shaxs qilib yetishtirishda muhim o'rin tutadi.

**Tyutorning asosiy maqsadi ham shu aslida:** jamiyat uchun ma'naviyatli, ma'rifatli tarbiyali jamiyatni rivojlantiradigan, yuksaltiradigan yangi cho'qqilarga olib chiqadigan yetuk kadrlarni yetkazib berish uchun o'z hissasini qo'shish. Quyida o'qituvchi va talabalarning tyutor haqidagi fikrlari keltirilgan va "sizga tyutor kerakmi?" savoliga javob olingan.

Ustoz: Umariy Muhridin Husniddin o'g'li, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Oliy va amaliy matematika kafedrasida o'qituvchisi Oliy ta'lim tizimida tyutorlarning ham o'qituvchi, ma'naviy, tashkiliy hodimlar singari muhim o'rin egallab bormoqda. Oliy ta'lim maskanlarining asosiy maqsadi jamiyat uchun yetuk kadrlar tayyorlash bo'lib bu jarayon amalga oshishida ustozlar –bilim berish, yo'naltirish, mustaqil fikrlash va kasbiy ko'niklamarni shakllantirishda asosiy o'rinda bo'lsa, tyutorlar-talabaning kundalik ta'lim jarayonida yaqin ko'makchi, ustozlar va jamoa bilan munosabat o'rnatishda asosiy yo'naltiruvchi, nafaqat ilmi balki tarbiyali va yomon illatlardan nari, jahon yangiliklaridan habardor, ona vatanga sadoqatli chinakam inson bo'lib

shakllanishlarida muhim shaxs hisoblanadi. Tyutor-talaba va oliy ta'lim muassasasi o'rtasida ko'prik bo'lib, oliy ta'lim muassasasining jamiyat uchun foydali, yetuk kadr yetkazib berish vazifanini asosiy tayanichlaridan bo'lmog'i kerak.

Talaba: Boymuhammedova Gulxana Adhambay qizi, 1-kurs Zamonaviy ta'lim tizimi nafaqat bilimlarni uzatishga, balki ta'lim oluvchining shaxsini rivojlantirishga, uning mustaqilligi, mas'uliyati va ongli kasbiy tanlov qilish qobiliyatini shakllantirishga ham yo'naltirilgan. Shu sharoitda ta'lim jarayonida talabalarni individual qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tyutorlik faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Tyutor ta'lim oluvchiga ta'lim muhitiga moslashishda, individual ta'lim yo'lini shakllantirishda va o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishda yordam beradi.

Tyutorlik faoliyati — bu ta'lim jarayonida talabalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan pedagogik hamrohlik shaklidir. An'anaviy o'qituvchidan farqli o'laroq, tyutor nafaqat bilim beradi, balki talabaga o'z maqsadlarini anglash, ustuvor yo'nalishlarni belgilash va individual ta'lim yo'lini shakllantirishga yordam beradi.

Tyutorlik faoliyati, ayniqsa, ta'limning dastlabki bosqichlarida muhim ahamiyatga ega, chunki bu davrda talabalar yangi talablar, o'quv jarayonining yangi tashkiliy shakllari va ortib borayotgan o'quv yuklamasi bilan to'qnash keladilar. Tyutor stress darajasini kamaytirishga, o'ziga ishonchni shakllantirishga va talabalarni talabalik muhitiga muvaffaqiyatli integratsiya qilishga ko'maklashadi. Samarali tyutorlik hamrohligi o'quv motivatsiyasining oshishiga, talabalarda mustaqillik va o'z ta'lim natijalari uchun mas'uliyat hissining rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada akademik ko'rsatkichlar yaxshilanadi, o'z-o'zini ta'lim olish va

tanqidiy fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Shunday qilib, tyutorlik faoliyati talabalar ta'limi davrida muhim ro'l o'ynaydi. U ta'lim jarayonini individuallashtirishga, ta'lim oluvchilarning muvaffaqiyatli moslashuviga va ta'lim sifatini umumiy yaxshilashga xizmat qiladi. Tyutorlik institutini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biridir.

“Ha” Talaba: Shoimova Sevinch Asadbek qizi, 2-kurs

Tyutor bu- muammo bo'lsa talabalarga qo'ldan kelgancha yordam beradigan, yonimizda turadigan inson. O'qish jarayonida ham, shaxsiy masalalarda ham yordam beradigan, talabani tushunadigan tyutor bo'lsa, talaba o'zini yolg'iz his qilmaydi va universitet hayotiga tezda moslashadi. O'ylaymanki, yaxshi tyutor talabani ishonchini qozonadi va uni rivojlanishga undaydi, xuddi chin do'st kabi.

“Ha”

Talaba : Olimjonova Munisa Nuriddin qizi, 3-kurs

Mening ta'lim jarayonimda tyutor nafaqat o'qish bo'yicha yordam beradi, balki talabalarga shaxsiy e'tibor bilan qaraydi, savollarimga javob topishda qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, yaxshi o'qish odatlarini, vaqtni boshqarish va motivatsiyani rivojlantirishni o'rgatadi. Ta'lim, universitet hayoti, ijtimoiy faoliyat bilan bog'liq savollar yoki muammolarga duch kelganimda, men darhol tyutorimga yuzlanaman. Ushbu yo'l menga universitet hayotiga moslashishda katta yordam beradi.

“Ha”

Talaba: Nurillayeva Ruhshona Mehridin qiz, 3- kurs

Talaba sifatida shuni aytish mumkinki, tyutorlik faoliyati o'qish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tyutor talabani ta'lim muhitiga moslashuvi, dars jarayonidagi

muammolarni bartaraf etishi hamda o'z vaqtini to'g'ri rejalashtirishida muhim yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Ayniqsa, o'qishning ilk bosqichlarida tyutorning ko'magi talaba uchun katta tayanch bo'lib xizmat qiladi. Tyutor tomonidan berilgan maslahatlar va doimiy nazorat talabani mas'uliyatini oshiradi, o'z ustida ishlashga undaydi. Natijada talaba nafaqat o'quv faoliyatida, balki shaxsiy rivojlanishida ham ijobiy o'zgarishlarga erishadi. Shu bois tyutorlik faoliyati ta'lim sifatini oshirishda va talabani muvaffaqiyatli shakllanishida muhim o'rin tutadi.

“Ha”

Talaba: Uraimov Muhammadqodir Zafar o'g'li, 4- kurs

Tyutor talaba hayotiga u mustaqil hayot boshlayotgan ilk davrda kirib keladi. Talaba yangi muhit, yangi hayot qarshisida dovdorab hayiqib turgan pallada uni qo'ldan tyutor tutadi. Yo'l ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasasida o'qish faoliyatini endi boshlagan talaba uchun shamchirog', yo'l ko'rsatuvchi, muhit bilan tanishtiruvchi hisoblanadi. Tyutorning talaba hayotidagi ro'li u 1-kursga kelganda boshlanib, 4-kursni tamomlaguniga qadar davom etadi, ammo muhim o'rin tutadi. Muhimligi shundaki, talabani talabalik davrini oltin davrga aytanishiga yordam beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, tyutorlik faoliyatizamonaviy ta'lim tizimining ajralmas va muhim tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Tyutor talabani bilim olish jarayonini yo'naltiribgina qolmay, uning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, maqsadlarini aniqlashtirish va muvaffaqiyat sarito'g'ri yo'l ko'rsatishda muhim ro'l o'ynaydi. Ko'rinmas bo'lsada tyutorlik ta'lim sifatini oshiruvchi kuchli omil bo'lib, talabani akademik va shaxsiy rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, tyutorlik faoliyatini rivojlantirish va unga



alohida e'tibor qaratish-ta'lim tizimi samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Mazkur maqola talabalarning o'qish davridagi tyutorlik faoliyatining ro'lini o'rganish hamda uning

o'quvdagi muvaffaqiyat, moslashuv va shaxsiy rivojlanishga ta'sirini aniqlash maqsadida yozilgan

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 393-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 563-sonli qarori
3. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktyabrdagi 656-son qarori
4. R.A. Mavlonova, N.H. Raxmonqulova "Umumiy pedagogika"
5. S.Jo'raqulov "Pedagogik mahorat"
6. Lex.uz sayti